https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Asadova Ruxshona Alisherovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Samarqand filiali.
Boshlang‘ich ta’lim, 3-kurs

“YOSH PEDAGOGLARNING BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SHOVQIN MUAMMOSINI BOSHQARISH VA TA’LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH YONDASHUVLARI”

Annotasiya:

Ushbu maqolada yosh pedagoglarning boshlang‘ich sinflarda kuzatiladigan shovqin muammosini samarali boshqarish bo‘yicha qo‘llanilgan yondashuvlar va metodlar ilmiy-amaliy jihatdan tizimli bayon etiladi. Tadqiqot talabalik davridagi pedagogik amaliyot jarayonida kuzatilgan vaziyatlar asosida olib borilib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shovqinini kamaytirish, ta’lim jarayonini barqaror tashkil etish hamda o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan tajribalar chuqur tahlil qilingan. Maqolada yosh pedagoglar tomonidan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan innovatsion metodlar, shuningdek, dars davomida intizomni mustahkamlash va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim bosqichida samarali sinf boshqaruvini yo‘lga qo‘yish hamda pedagogik jarayon sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abstract:

This article systematically describes the approaches and methods used by young teachers to effectively manage the problem of noise in primary schools. The study was conducted on the basis of situations observed during pedagogical practice during student years, and in-depth analysis of experiments aimed at reducing the noise of primary school students, ensuring the sustainable organization of the educational process, and increasing student activity was carried out. The article presents innovative methods that can be used by young

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

teachers, as well as practical recommendations to strengthen discipline during the lesson and increase the effectiveness of the educational process. The results of the study are of great importance in establishing effective classroom management at the primary education stage and improving the quality of the pedagogical process.

Аннотация:

В данной статье систематически описываются подходы и методы, используемые молодыми учителями для эффективного решения проблемы шума в начальных школах.

Исследование проводилось на основе ситуаций, наблюдавшихся во время педагогической практики в студенческие годы, и был проведен углубленный анализ экспериментов, направленных на снижение уровня шума среди учащихся начальной школы, обеспечение устойчивой организации учебного процесса и повышение активности учащихся. В статье представлены инновационные методы, которые могут быть использованы молодыми учителями, а также практические рекомендации по укреплению дисциплины во время урока и повышению эффективности учебного процесса. Результаты исследования имеют большое значение для установления эффективного управления классом на этапе начального образования и повышения качества педагогического процесса.

Kalit so‘zlar:

Boshlang‘ich ta’lim, pedagogik mahorat, gadjetlar va mobil telefonlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), shovqin va tartibsizlik muammosi, innovatsion metodlar,pedagogik innovatsiya, psixologik yondashuv

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords:

Primary education, pedagogical skills, gadgets and mobile phones, information and communication technologies (ICT), noise and disorder problem, innovative methods, pedagogical innovation, psychological approach

Ключевые слова:

Начальное образование, педагогические навыки, гаджеты и мобильные телефоны, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), проблема шума и беспорядка, инновационные методы, педагогические инновации, психологический подход

Kirish

Boshlang‘ich ta’lim 1–4-sinflarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqich bolalarga ilk savodxonlikni o‘rgatish, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yo‘lga qo‘yish hamda shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalari belgilangan bo‘lib, unda o‘quvchilarda keyingi ta’lim bosqichlari uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish muhimligi ta’kidlanadi.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagog oldida turli psixologik yondashuvlar, innovatsion metodlar va pedagogik innovatsiyalardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida turli muammolar paydo bo‘lmoqda. Ulardan eng dolzarb va ko‘p uchraydiganlari sinfdagi shovqin-suron, tartibsizlik hamda mobil telefon va gadjetlarga bog‘lanib qolish masalasidir.

Shovqin muammosi nafaqat dars sifatini pasaytiradi, balki gadjetlardan haddan tashqari foydalanish ayrim o‘quvchilarning e’tiborini jamlashiga, bilim olish jarayonidagi motivatsiyasining susayishiga olib keladi. Yosh pedagoglar, ayniqsa, ilk ish faoliyatini boshlaganlarida, bunday vaziyatlarni boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shu nuqtai nazardan, shovqin muammosini boshqarishning samarali yondashuvlarini, ta’lim jarayonini barqaror tashkil etish omillarini hamda o‘quvchilar faolligini oshirish usullarini ilmiy asosda o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinflarda shovqin muammosini boshqarish, shuningdek, ta’lim jarayonini barqaror tashkil etish va o‘quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim bosqichi bo‘lib, shaxsni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Juda qadim zamonlardan buyon ushbu mas’uliyatli faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi boshlang‘ich ta’lim sinflarida ta’lim jarayonining samaradorligi, avvalo, sinf boshqaruvini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar yosh xususiyatlariga ko‘ra faol, harakatchan va o‘yinqaroq bo‘ladilar. Shu sababli dars jarayonida ularning diqqatini boshqarish o‘qituvchidan alohida pedagogik mahoratni talab etadi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lish o‘qituvchi uchun ta’lim- tarbiya samaradorligini ta’minlovchi muhim omil bo‘libgina qolmay, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi.

Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchini tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g‘ri baholashi, adolatli va faol bo‘lishi, shuningdek pedagogik jarayonda o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g‘oyalarni hayot bilan bog‘lay olishi lozim. O‘z davrlarida Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Sa’diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy,

Abdulla Avloniy va boshqa buyuk allomalarimiz o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari hamda o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan fazilatlar haqida o‘z asarlarida qimmatli fikrlarni bayon etganlar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Pedagogik amaliyot davomida shunga guvoh bo‘ldimki, bugungi kunda ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri bu mobil telefon va gadjetlardan ortiqcha hamda nazoratsiz foydalanishdir. Ayrim ota-onalar bolalarini kichik yoshda tinchlantirish yoki ovutish maqsadida ularga mobil qurilmalardan foydalanishga ruxsat beradilar. Natijada o‘quvchilarda gadjetlarga nisbatan haddan tashqari qiziqish shakllanib, bu ularning diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishiga va darsliklarga bo‘lgan qiziqishning susayishiga olib kelmoqda.

Buning oqibatida dars jarayonida shovqin va tartibsizlik holatlarining ko‘payishi kuzatilmoqda.

Hozirgi zamon o‘quvchilarida an’anaviy darsliklarga nisbatan qiziqish darajasi sezilarli darajada pasaygan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng rivojlangan davrda ulg‘ayayotgan yoshlar ko‘proq vizual, interaktiv va raqamli ta’lim resurslariga moyillik bildirmoqdalar.

Chunki ayrim o‘quvchilar gadjet va mobil telefonlarga bog‘lanib qolganligi sababli oddiy matnga asoslangan dars materiallari ularning e’tiborini uzoq vaqt davomida ushlab tura olmaydi.

Mazkur muammoning yechimi sifatida dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish, ya’ni darsliklarni zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirib o‘qitish ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Interaktiv va onlayn platformalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ularning axborotni tahlil qilish va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, dars jarayonida raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish o‘quvchilarning gadjetlarga bo‘lgan qiziqishini ta’limiy faoliyatga yo‘naltirishga yordam beradi.

Shovqin va tartibsizlikni oldini olish uchun yosh pedagoglar bir qator samarali strategiyalarni qo‘llashlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

oldindan rejalashtirilgan faoliyati sinfni samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega

Sinfni samarali boshqarish rejasini yaratish uchun 8 qadam:

1- Darsni oldindan rejalashtirish va strukturaviy tashkil etish

2- Dars rejasi aniq va maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak

3- Mashg‘ulotlar ketma-ketligi

4- Tartib-intizom tizimi va mukofotlash strategiyalari

5- Sinf qoidalari va intizomiy normalarni o‘quvchilarga tushuntirish

6- Yaxshi xatti-harakatlarni rag‘batlantirish va mukofotlash

7- tartibsizlik holatlarini muloyim, ammo qat’iy tarzda tuzatish. 8-Interaktiv va faol o‘qitish metodlari

O‘quvchilarning diqqatini jalb qiladigan o‘yinlar,

rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga faol ishtirokini rag‘batlantirish.

Darhaqiqat, pedagogik amaliyot davomida ta’lim jarayonini bevosita kuzatish imkoniyati yuzaga keladi. Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda yosh o‘qituvchi faqat nazariy bilimga ega bo‘lish bilan kifoyalanmasdan, uni amaliyotda samarali qo‘llay olish uchun ilg‘or ilmiy yondashuvlar va metodik ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, o‘qituvchining pedagogik malakasi va sinf boshqaruvi ko‘nikmalari yetarli bo‘lmasa, sinfdagi tartibsizliklar, shovqin va diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar tabiiy jarayon sifatida yuzaga keladi.

Buni oldini olish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida pedagogik innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik innovatsiya – bu ta’lim jarayonini yangicha yondashuvlar, ilg‘or metod va texnologiyalar yordamida takomillashtirishdir. U nafaqat o‘qituvchining kasbiy faoliyatini sifat jihatidan oshiradi, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi qiziqish va motivatsiyasini ham kuchaytiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shu bilan birga, innovatsion metodlar boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonida bir qator ijobiy natijalarni ta’minlaydi. Ular o‘quvchilarning faoliyatini rag‘batlantiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantiradi, shuningdek, darslarni interaktiv va qiziqarli qiladi. Quyida boshlang‘ich sinflarda tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan bir qator innovatsion pedagogik metodlarni ko‘rib chiqamiz.



https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026





Yuqorida keltirilgan metodlardan tashqari, o‘qituvchi yangi, ijodiy va innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish orqali dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishi mumkin. Bunday metodlar nafaqat o‘quvchilarning diqqatini jamlashga yordam beradi, balki sinfdagi shovqin va tartibsizlikni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Har bir metod o‘quvchilarning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

turli qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har bir metod psixologik yondashuvni amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi, chunki metodlar orqali rag‘batlangan o‘quvchilar darsga nisbatan qiziqish va motivatsiyasini oshiradi. Natijada o‘quvchilar faolligi ortadi, ular dars jarayonida faol ishtirok etishga undaladi va o‘z qobiliyatlarini yanada samarali namoyon eta boshlaydi. Shu yo‘l bilan pedagogik innovatsiyalar va psixologik yondashuv birgalikda ishlatilganda, boshlang‘ich ta’lim jarayoni nafaqat interaktiv, balki har bir o‘quvchi uchun shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Psixologik yondashuvlardan biri sifatida bolalarning yoshiga mos, qiziqarli psixologik savollar berish hamda turli anketalarni to‘ldirish usulidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Amaliyot jarayonida ushbu metodlar bolalarning qiziqishlari, moyilliklari va individual xususiyatlarini aniqlashda samarali ekanligi kuzatildi. Xususan, bunday psixologik savollar va anketalar orqali bolaning nimaga qiziqishi, qaysi faoliyat turlariga ko‘proq moyilligi borligini aniqlash mumkin. Quyida shunday psixologik savollar va anketalardan namunalar keltirilgan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

SAVOLLAR



1. Maktabda qaysi dars senga qiyin tuyuladi?

_____

_____

2. Bo‘sh vaqtingda nima bilan shug‘ullanasan?

_____

_____



3. Kelajak da kim bo‘lib ishlashni hohlaysan?

_____

_____



4. Senga nima haqida kitob o‘qish yoqadi?

_____

_____

5. Senga odam ko‘p joy yoqadimi?

_____

_____



6. Sening sevimli o‘yinchoq yoki o‘yining nomi nima?

_____

_____



7. Sportning qaysi turi bilan shug‘ullanish senga zavq beradi?_____

_____

8. Eng yaqin do‘sting senga nima uchun yoqadi?

_____

_____



9. Senga narsalar yasash yoqadimi?_____

_____

10. Qaysi hayvonni uyda boqishni orzu qilasan?

_____

_____

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Savol matni Ha (+) Yo'q (–)

Savol matni	Ha (+)	Yo'q (–)
Senga rangli qalamlar bilan rasm chizish yoki bo'yash yoqadimi?		
Biror narsa buzilib qolsa, uning ichida nima borligini bilishga qiziqasanmi?		
Hayvonlar haqidagi kitoblar yoki multfilmlar senga yoqadimi?		
Matematika darsida qiyin misollarni yechish senga qiziqarlimi?		
Bayramlarda she'r aytish yoki qo'shiq kuylashdan uyalmaysanmi?		
Ko'chada o'ynayotganda bolalarni bir guruhga to'plab, o'yinni boshqarishni xohlaysanmi?		
Senga o'simliklarni parvarish qilish yoki gul ekish yoqadimi?		
Uyda yolg'iz qolsang, o'zing uchun qiziqarli yangi o'yin o'ylab topa olasanmi?		
Kompyuter yoki telefonda faqat o'yin o'ynamassdan, ularni qanday ishlashini o'rganishni xohlaysanmi?		
Ertak kitoblarni o'qish yoki tinglash senga katta zavq beradimi?		
Raqsga tushishni yoki sport bilan shug'ullanishni yaxshi ko'rasanmi?		
Senga narsalarni tartib bilan taxlab qo'yish yoqadimi?		
Atrofingdagi odamlarga yordam berish senga quvonch beradimi?		
Turli xil shakllarni yasash senga yoqadimi?		
Osmondagi yulduzlar, sayyoralar yoki kosmos haqida bilishni xohlaysanmi?		
Osmondagi yulduzlar, sayyoralar yoki kosmos haqida bilishni xohlaysanmi?		
Biror narsani o'rgnah senga yoqadimi?		

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa qilib aytganda, pedagogik amaliyot davomida boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini kuzatar ekanman, sinfdagi shovqin va tartibsizliklar asosan darsning qanday tashkil etilishi, o‘qituvchining sinfni boshqarish mahorati hamda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan bevosita bog‘liq ekanligiga amin bo‘ldim. Ayniqsa, yosh pedagoglar uchun dars jarayonini samarali boshqarish muhim va mas’uliyatli vazifa hisoblanadi. Amaliyot davomida o‘quvchilarning mobil telefon va gadjetlarga bo‘lgan haddan tashqari qiziqishi ularning diqqatini jamlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini, bu esa dars vaqtida shovqin va tartibsizliklarning ko‘payishiga olib kelayotganini kuzatdim. Shu bilan birga, faqat an’anaviy usullardan foydalanish o‘quvchilarning e’tiborini uzoq vaqt davomida saqlab qolishga yetarli emasligini angladim.

Dars jarayonida interaktiv metodlar, didaktik va rolli o‘yinlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning faolligini kuchaytirishini amaliyotda ko‘rdim. Darslar oldindan puxta rejalashtirilganda, aniq sinf qoidalari va rag‘batlantirish tizimi joriy etilganda, sinfda tartib-intizom mustahkamlanib, shovqin darajasi sezilarli kamaydi.

Shuningdek, psixologik savollar va anketalar orqali o‘quvchilarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini aniqlash dars jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam berdi.

O‘quvchilarga individual yondashuv qo‘llanilganda, ular o‘zlarini erkin his qilib, dars jarayonida faolroq ishtirok eta boshladilar.

Umuman olganda, pedagogik amaliyot davomida orttirilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinflarda shovqin muammosini kamaytirish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagog innovatsion metodlar va psixologik yondashuvlardan oqilona foydalanishi zarur. Ushbu tajribalar kelgusidagi pedagogik faoliyatimda samarali sinf boshqaruvini yo‘lga qo‘yishda muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim Vikipediya https://uz.wikipedia.org/wiki/Boshlang%CA%BBich_ta%CA%BClim
2. Abdullayeva B. S. va boshqalar. Umumiy pedagogika: Pedagogik mahorat. Darslik / B. S. Abdullayeva, A. A. Xoliqov, H. M. Sodiqov, Sh. Q. Primov, Sh. R. Zarmasov. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 3-4 va 5-betlar.